


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 608,1 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln.AQSh dollari)



Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 271,2 mln.AQSh dollariga (22,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 336,8 mln.AQSh dollariga (11,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 65,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-iyun, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	182,0	127,2	54,8	29,9
Xitoy Xalq Respublikasi	161,1	23,6	137,5	26,5
Turkiya	50,7	27,7	23,0	8,3
Qirg'iziston Respublikasi	45,9	39,3	6,7	7,5
Qozog'iston	45,4	16,7	28,6	7,5
Germaniya	14,4	4,0	10,4	2,4
Belarus	10,8	1,1	9,6	1,8
Koreya Respublikasi	10,5	1,1	9,5	1,7
Polsha	10,0	5,0	5,0	1,6
Litva	9,5	0,7	8,8	1,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 67 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (29,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,5 %), Turkiyada (8,3 %), Qirg'iz Respublikasida (7,5 %), Qozog'istonda (7,5 %), Germaniya (2,4 %) va Belarus (1,8 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (182,2 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (161,1 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	102228,4	144650,0	182030,1
Ekspart	63227,3	96520,3	127230,9
Import	39001,0	48129,7	54799,3
Saldo	24226,3	48390,7	72431,6
Xitoy Xalq Respublikasi	94567,0	137660,9	161065,9
Ekspart	16369,7	32994,8	23593,7
Import	78197,3	104666,1	137472,1
Saldo	-61827,6	-71671,3	-113878,4
Turkiya	21667,0	50635,5	50686,4
Ekspart	6551,5	15904,3	27724,1
Import	15115,5	34731,2	22962,3
Saldo	-8564,0	-18826,8	4761,9
Qirg'iziston Respublikasi	53110,5	31594,4	45906,1
Ekspart	50480,9	28714,3	39250,5

Import	2629,6	2880,1	6655,6
Saldo	47851,3	25834,2	32594,9
Qozog'iston	48742,8	57782,4	45356,9
Eksport	27011,1	20014,6	16736,0
Import	21731,7	37767,8	28620,9
Saldo	5279,5	-17753,2	-11884,9
Germaniya	9085,2	6473,2	14378,8
Eksport	1657,6	807,1	4026,3
Import	7427,6	5666,2	10352,6
Saldo	-5770,0	-4859,1	-6326,3
Belarus	1566,2	6015,6	10791,3
Eksport	1294,8	1234,8	1145,4
Import	271,4	4780,7	9645,9
Saldo	1023,4	-3545,9	-8500,4
Koreya Respublikasi	8690,6	5099,9	10541,9
Eksport	154,4	87,1	1060,3
Import	8536,2	5012,8	9481,6
Saldo	-8381,8	-4925,6	-8421,3
Polsha	3948,6	7501,6	9997,0
Eksport	3158,4	4132,3	4989,0
Import	790,2	3369,3	5007,9
Saldo	2368,2	763,0	-18,9
Litva	1308,6	1528,1	9509,5
Eksport	19,8	312,5	676,2
Import	1288,8	1215,6	8833,3
Saldo	-1268,9	-903,1	-8157,0
Turkmaniston	2922,6	6317,4	8081,2
Eksport	1592,3	1507,6	2916,5
Import	1330,3	4809,8	5164,7
Saldo	262,0	-3302,2	-2248,1
Ukraina	4394,7	7568,9	7240,4
Eksport	3683,0	4434,3	3565,6
Import	711,7	3134,7	3674,8
Saldo	2971,3	1299,6	-109,3

Hindiston	3458,1	10122,8	6025,4
Eksport	226,8	655,3	270,6
Import	3231,3	9467,5	5754,8
Saldo	-3004,6	-8812,2	-5484,2
Fransiya	2555,6	4104,4	4974,0
Eksport	-	-	29,2
Import	2555,6	4104,4	4944,8
Saldo	-2555,6	-4104,4	-4915,6
Tojikiston	2854,2	2650,4	4397,7
Eksport	2523,2	1946,2	2183,2
Import	331,0	704,2	2214,5
Saldo	2192,2	1242,0	-31,3
Eron Islom Respublikasi	1188,6	2487,2	4143,7
Eksport	214,6	240,2	1663,4
Import	974,0	2247,0	2480,3
Saldo	-759,4	-2006,8	-817,0
Italiya	2952,7	4712,6	2933,9
Eksport	898,4	673,9	960,6
Import	2054,3	4038,7	1973,4
Saldo	-1155,9	-3364,7	-1012,8
Malayziya	4799,5	4272,9	2879,2
Eksport	-	-	-
Import	4799,5	4272,9	2879,2
Saldo	-4799,5	-4272,9	-2879,2
Latviya	465,3	1049,3	2760,8
Eksport	1,8	66,8	266,4
Import	463,5	982,5	2494,4
Saldo	-461,7	-915,7	-2227,9
Shveysariya	9668,8	1601,8	1818,1
Eksport	-	0,4	-
Import	9668,8	1601,4	1818,1
Saldo	-9668,8	-1600,9	-1818,1

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 1,1 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-iyun % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-iyun oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (1,1 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,5 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlar soni 384 tani tashkil etib, ular tomonidan 271,2 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 22,7 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,0 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (58,3 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (22,9 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (12,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	271,2	195,3	76,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	33,1	20,9	12,2	12,2	10,7	16,1
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,6	0,0	0,2	0,3	0,0
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	3,7	1,2	2,6	1,4	0,6	3,4
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,9	0,2	0,4	0,5	0,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,2	3,5	0,7	1,5	1,8	0,9
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	158,3	105,4	52,9	58,3	54,0	69,6
Mashina va transport uskunolari	2,6	2,5	0,0	1,0	1,3	0,0
Har xil tayyor mahsulotlar	62,2	57,7	4,5	22,9	29,6	5,9
Xizmatlar	5,4	2,5	2,9	2,0	1,3	3,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-iyun, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-iyun oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 46,9 %), Qirg'iz Respublikasi (14,5 %), Turkiya (10,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi

(8,7 %), Qozog'iston (6,2 %), Polsha (1,8 %) va Germaniya (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,8 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yining mos davriga nisbatan 46 davlatdan 47 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-iyun, % da)**



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-iyun)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	96520,3	127230,9	152,7	131,8	1	1
Qirg'iz Respublikasi	28714,3	39250,5	56,9	136,7	3	2
Turkiya	15904,3	27724,1	242,8	174,3	5	3
Xitoy Xalq Respublikasi	32994,8	23593,7	201,6	71,5	2	4
Qozog'iston	20014,6	16736,0	74,1	83,6	4	5
Polsha	4132,3	4989,0	130,8	120,7	7	6
Germaniya	807,1	4026,3	48,7	498,9	14	7
Ukraina	4434,3	3565,6	120,4	80,4	6	8
Turkmaniston	1507,6	2916,5	94,7	193,5	11	9
Tojikiston	1946,2	2183,2	77,1	112,2	8	10
Eron	240,2	1663,4	111,9	692,5	19	11
Afg'oniston	1929,5	1535,2	149,4	79,6	9	12
Belgiya	404,6	1342,4	2185,1	331,8	17	13
Azerbadjon	289,0	1228,4	60,5	425,0	18	14
Portugaliya	1883,8	1152,6	234,0	61,2	10	15
Belarus	1234,8	1145,4	95,4	92,8	12	16
Koreya Respublikasi	87,1	1060,3	56,4	1216,8	20	17
Italiya	673,9	960,6	75,0	142,5	16	18
Gruziya	682,3	783,6	155,9	114,9	15	19
Moldova	939,4	783,2	136,5	83,4	13	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 5440,7 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 97.9 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 158,3 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 58,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 133,2 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

2022- yil yanvar-iyun oyida import hajmi 336,8 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (36,0 %), Sanoat mahsulotlari (21,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashina va transport uskunalari
- Har xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 336,8 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-iyun)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	336,8	111,6	225,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	47,9	35,0	12,9	14,2	31,4	5,7
Ichimliklar va tamaki	18,7	14,4	4,3	5,6	12,9	1,9
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	13,4	13,1	0,3	4,0	11,7	0,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,1	7,9	3,1	3,3	7,1	1,4
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	42,4	9,3	33,1	12,6	8,4	14,7
Sanoat mahsulotlari	72,5	21,5	51,0	21,5	19,3	22,6
Mashina va transport uskunalari	121,4	8,7	112,7	36,0	7,8	50,1
Har xil tayyor mahsulotlar	9,5	1,6	7,8	2,8	1,5	3,5

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (31,4 %) Sanoat mahsulotlari (19,3 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (50,1 %), Sanoat mahsulotlari (22,6 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 11,3 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 21,0 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 13,4 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-iyun, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 40,8 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,3 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	104666,1	137472,1	133,8	131,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	48129,7	54799,3	123,4	113,9	2	2
Qozog'iston	37767,8	28620,9	173,8	75,8	3	3
Turkiya	34731,2	22962,3	229,8	66,1	4	4
Germaniya	5666,2	10352,6	76,3	182,7	6	5
Belarusiya	4780,7	9645,9	1761,5	201,8	9	6
Koreya Respublikasi	5012,8	9481,6	58,7	189,1	7	7
Litva	1215,6	8833,3	94,3	726,7	18	8
Qirg'iz Respublikasi	2880,1	6655,6	109,5	231,1	15	9
Hindiston	9467,5	5754,8	293,0	60,8	5	10
Turkmaniston	4809,8	5164,7	361,6	107,4	8	11
Polsha	3369,3	5007,9	426,4	148,6	13	12
Fransiya	4104,4	4944,8	160,6	120,5	11	13
Ukraina	3134,7	3674,8	440,5	117,2	14	14
Malaziya	4272,9	2879,2	89,0	67,4	10	15
Latviya	982,5	2494,4	212,0	253,9	19	16
Eron	2247,0	2480,3	230,7	110,4	16	17
Tojikiston	704,2	2214,5	212,7	314,5	20	18
Italiya	4038,7	1973,4	196,6	48,9	12	19
Shveysariya	1601,4	1818,1	16,6	113,5	17	20

2021- yining mos davriga nisbatan 59 davlatdan 60 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-iyun % da)**



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Germaniya, Belarus, Respublika Koreya) jami importning 81,2 % ini tashkil qiladi, bu 273 334,6 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Litva tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00**